

## **ЎТМИШГА НАЗАР**

**3 - МАХСУС СОН**

## **ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ**

**СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК - 3**

## **LOOK TO THE PAST**

**SPECIAL ISSUE - 3**



**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**«Ўтмишга назар» илмий журнали тахририй маслаҳат кенгаши**  
**редакционный совет научного журнала «Взгляд в прошлое»**  
**Editorial board of the scientific journal Looking into the past**

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Зияева Доно Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори, Телави  
давлат университети, Грузия

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори, Телави  
давлат университети, Грузия

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети, Қозоғистон

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент кимё - технология институти

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Гоффоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Самарқанд давлат тиббиёт институти

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
профессор, Телави давлат  
университети, Грузия

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Республикаси  
Фанлар академияси

**Джоробекова Айнуэр Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Дипломатия академияси,  
Қозоғистон Республикаси

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Санпова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Россия ФА, Санкт-Петербург  
Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Давлат тарихи институти, Қозоғистон

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Ал-Фаробий номидаги Қозоғистон  
Миллий университети, Қозоғистон

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон миллий университети

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Талапов Бахриддин Алижанович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Одилов Абдор Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

<b>1. Алима Ауанасова</b> ҚОЗОҒИСТОН ХАЛҚ АССАМБЛЕЯСИ – МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК ВА БИРДАМЛИКНИНГ САМАРАЛИ МОДЕЛИ.....	5
<b>2. Максим Моисеев</b> РОССИЯ ПОДШОЛИГИ ВА МАРКАЗИЙ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИ ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАР ТАРИХИГА ОИД ЯНГИ ТОПИЛГАН ҲУЖЖАТЛАР.....	11
<b>3. Рахбар Холиқова</b> TURKISTON O‘LKASIDAGI MILLIY OZODLIK HARAKATLARI TARIXIDAN (MARDIKORLIKKA SAFARBARLIK VA UNING OQIBATLARI).....	21
<b>4. Ибройим Махкамов, Хамиджон Шахобов, Умида Носирова</b> ЖАДИДЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ҚАРАШЛАРИ ВА УНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ.....	29
<b>5. Дурдонахон Муродова</b> ЖАНУБИЙ ФАРҒОНА ШАҲАРСОЗЛИГИДА МАРФИЛОН. ДАСТЛАБКИ АНТРОПОГЕН ЛАНДШАФТЛАР (ЁЗМА МАНБАЛАР ВА АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРДА).....	36
<b>6. Авазбек Мирзаев</b> ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА ПАХТА САВДОСИ ВА ТОЛАНИ МЕТРОПОЛИЯГА ТАШИБ КЕТИЛИШИ МАСАЛАЛАРИ.....	42
<b>7. Саҳодат Муртазова</b> “МАҚОМ” ФЕСТИВАЛИ – ХАЛҚАРО МАДАНИЙ ҲАМКОРЛИКНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИ.....	48
<b>8. Шухратжон Абдуллоев</b> БУҒДОЙНИНГ ИЛОҲИЙЛАШТИРИЛИШИ БЎЙИЧА МОДДИЙ ВА ЁЗМА МАНБАЛАР.....	54
<b>9. Исломбек Бобожонов</b> ТОШКЕНТ ШАҲАР МАҲАЛЛАЛАРИДА ЁШЛАР ЎРТАСИДАГИ МАЪНАВИЙ- МАЪРИФИЙ ФАОЛИЯТДА ИЖТИМОЙ ШЕРИКЛИК (1991-2019 йй.).....	63
<b>10. Бобурмирзо Ботиров</b> ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИГА ОИД ҚУРЪОНИ КАРИМДА КЕЛГАН НОРМАЛАР ТАҲЛИЛИ.....	69
<b>11. Хумоюн Назаров</b> ШИМОЛИЙ БАҚТРИЯНИНГ КУШОН ДАВРИ ҚЎҲНА ШАҲАРЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИДАН.....	81
<b>12. Баҳрам Намозов</b> ҚУТЛУҒ БАШАРОВ ИЖОДИГА НАЗАР.....	90
<b>13. Файзулла Очилдиев</b> XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ - XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАР ВА СОЛИҚ ТУРЛАРИ.....	96


<b>14. Turdigul Omirzakovna</b> QORAQALPOQ XALQINING XOTIRALARIDAGI VA MEMUARLARIDAGI IKKINCHI JAHON URUSHI.....	105
<b>15. Мухиддинжон Примов</b> XX АСРНИНГ 60-ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН КАРТОГРАФИЯСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИГА ДОИР.....	113
<b>16. Азиз Равшанов</b> ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИДАГИ ЙИРИК САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИГА ҚИСҚАЧА НАЗАР (1991-2020 йиллар).....	120
<b>17. Гулчехра Рахимова</b> ОЛМАЛИҚ ШАҲРИДА ЭКОЛОГИК ҲОЛАТНИНГ ЎЗГАРИШ САБАБЛАРИ.....	127
<b>18. Екатерина Смесова</b> ВЕРА КОМИССАРЖЕВСКАЯ ВА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИНИНГ ТЕАТР САНЪАТИ ТАРИХИ САҲИФЛАРИДАН.....	134
<b>19. Жасур Савриев</b> НАВОИЙ ВИЛОЯТИДАГИ “РАБОТИ МАЛИК” ҚАРВОНСАРОЙИНИНГ ҚУРИЛИШ ЛОЙИҲАСИ ВА МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДАГИ ТАЪМИРЛАНИШ ТАРИХИ.....	140
<b>20. Музаффар Тожибоев</b> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИДА МИЛЛИЙ ВА УМУМБАШАРИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТАРИХИНИНГ ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАРДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ.....	156
<b>21. Сайёра Тураева</b> ЧОР РОССИЯСИНИНГ ЎРТА ОСИЁГА 1840 ЙИЛЛАРДАГИ ЭКСПЕДИЦИЯЛАРИ: ГЕОЛОГИК ВА ИҚТИСОДИЙ, СИЁСИЙ АСПЕКТЛАРИ.....	163
<b>22. Тўракул Ҳасанбоев</b> ЖИЗЗАХ ВОҲАСИ СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА (ЁЗМА МАНБАЛАР АСОСИДА).....	170
<b>23. Шермухаммат Эрназаров</b> МИЛЛИЙ ҒОЯ ТАРҒИБОТИДА ТАРИХИЙ ВА СИЁСИЙ ОНГНИНГ АҲАМИЯТИ.....	176
<b>24. Ахмеджон Юсупов</b> САРИҚАМИШБЎЙИ ВА УЗБОЙ САРҲАДЛАРИ ЁДГОРЛИКЛАРИДА АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАРИХИДАН.....	185
<b>25. Алишер Эсанов</b> ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ АСОСЧИСИ АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ ҲАЁТИ ВА ИЖОДИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУНОЗАРАЛАР.....	193
<b>26. Миролим Бердикулов</b> ТЎДА-1 НЕОЛИТ МАКОНИ ТОШ ҚУРОЛЛАРИ (2017-2018 йиллардаги қазилма материаллари асосида).....	197

# ЎТМИШГА НАЗАР ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

**Rahbar Ergashevna Xolikova,**  
Tarix fanlari doktori, professor  
Toshkent davlat texnika universiteti  
[@tdtu.uzrahbarkholikova@mail.ru](mailto:@tdtu.uzrahbarkholikova@mail.ru)

## TURKISTON O'LKASIDAGI MILLIY OZODLIK HARAKATLARI TARIXIDAN (MARDIKORLIKKA SAFARBARLIK VA UNING OQIBATLARI)

**For citation:** Rahbar E. Kholikova, FROM THE HISTORY OF THE NATIONAL LIBERATION MOVEMENT IN THE TURKESTAN REGION (LABOR MOBILIZATION AND ITS CONSEQUENCES). Look to the past. 2020, Special issue 3, pp.21-28

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6579011>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada birinchi jahon urushining og'ir asoratlari, uning Turkiston o'lkasi iqtisodiyotiga salbiy ta'siri, chor ma'murlari mustamlakachilik siyosatining mohiyati, o'lka xalqlarining front orti va yaqinidagi ishlarga majburiy ravishda "mardikorlik" nomi bilan safarbar etilishi, unga qarshi xalq chiqishlari va uning milliy ozodlik harakati tusini olgan 1916 yilgi qo'zg'olon tafsilotlari, uning jarayonlari va oqibatlari keltirilgan. Turkiston mahalliy aholisini chor Rossiyasi hududlariga mardikorlikka yangitdan safarbar etish jarayoni, chor hukumatining mardikorlikka olish haqidagi farmoni va uning zo'ravonlik bilan amalga oshirilishi, mustamlakachilik siyosati va milliy zulmning ko'rinishlaridan biri ekanligi, podsho farmoni ko'p millatli Turkiston xalqlari boshiga kulfat keltirganligi manbalar va adabiyotlar, hujjatlar asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Turkiston, milliy davlatchilik, mahalliy millatlar, iqtisodiy ahvol, general – gubernator, birinchi jahon urushi, safarbarlik, farmon, harakatdagi qo'shin, Jizzax qo'zg'oloni, milliy ozodlik harakati, chor ma'murlari, qirg'izlar, Xitoy, chegara, Ettisuv.

**Рахбар Эргашевна Холикова,**  
Доктор исторических наук, профессор,  
Ташкентский государственный технический  
университет имени И.Каримова  
[@tdtu.uzrahbarkholikova@mail.ru](mailto:@tdtu.uzrahbarkholikova@mail.ru)

## ИЗ ИСТОРИИ НАЦИОНАЛЬНО-ОСВОБОДИТЕЛЬНОГО ДВИЖЕНИЯ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ (МОБИЛИЗАЦИЯ НА РАБОЧИЕ СИЛЫ И ЕЕ ПОСЛЕДСТВИЯ)

**АННОТАЦИЯ**

В статье рассматриваются серьезные последствия Первой мировой войны, ее негативное влияние на экономику Туркестана, суть колониальной политики царских властей, принудительная мобилизация народов региона в работу на фронте и вблизи фронта под названием «рабочая сила», народные восстания против нее, подробности восстания 1916 г., его процессы и последствия. На основе источников и литературы, документов освещен процесс новой мобилизации коренного населения Туркестана на территории царской России в «рабочие силы», указ царского правительства о взятии его в «рабочие силы» и его насильственной реализации, проявление колониальной политики и национального угнетения, о нанесении ущерба многонациональному народу Туркестана указом царя.

**Ключевые слова:** Туркестан, национальная государственность, местные народы, экономическое положение, генерал –губернатор, Первая мировая война, мобилизация, указ, действующая армия, Джизакское восстание, национально-освободительное движение, царские правители, киргизы, Китай, граница, Семиречье.

**Rahbar E. Kholikova,**  
Tashkent State Technical University  
named after I.Karimov,  
Professor, Doctor of Historical Sciences.  
@tdtu.uzrahbarkholikova@mail.ru

**FROM THE HISTORY OF THE NATIONAL LIBERATION MOVEMENT IN THE TURKESTAN REGION (LABOR MOBILIZATION AND ITS CONSEQUENCES)****ABSTRACT**

The article examines the serious consequences of the First world war, its negative impact on the economy of Turkestan, the essence of the colonial policy of the tsarist authorities, the forced mobilization of the peoples of the region to work at the front and in the vicinity of the front called "labor force", popular uprisings against it, details of the 1916 uprising, its processes and consequences. On the basis of sources and literature, documents describes the process of a new mobilization of the indigenous population of Turkestan, on the territory of tsarist Russia in the "labor force", the decree of the tsarist government about taking it to the "working force" and its forced implementation of colonial policies and national oppression of the damage and the multinational people of Turkestan by the decree of the king.

**Index Terms:** Turkestan, national statehood, local peoples, economic situation, Governor-General, world war I, mobilization, decree, active army, Jizzakh uprising, national liberation movement, tsarist rulers, Kirghiz, China, border, Semirechye.

**1. Dolzarbliki:**

Mustaqillik bizni yangicha tafakkur, yangicha qarash va yangicha tahlil qilishga undamoqda.. Bu borada yangilanayotgan O'zbekistonda ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Turkiston o'lkasi xalqlari olib borgan milliy-ozodlik harakatlari ichida 1916 yilgi qo'zg'olon alohida ahamiyatga ega. Butun Turkiston o'lkasi hududini Jizzax, Farg'ona, Ettisuv, To'rg'ayni to'la qamrab olgan bu qo'zg'olon o'lkadagi milliy ozodlik harakatlarining eng yuqori vaburilish nuqtasi sifatida tarixga kirgan. Shu nuqtai nazardan xalqimizning shonli o'tmishini o'rganish, ayniqsa ularning insoniyat boshigamisiz kulfat keltirgan birinchi jahon urushi davridagi chor Rossiyasining farmonidan, uning mardikorlikka olish harakatidan norozi bo'lgan xalqning front va front ortidagi mashaqqatli mehnat tarixlarini o'rganib, bundan keng jamoatchilikni xabardor qilish bugungi tadqiqotchilar oldidagi dolzarb vazifalaridan biridir.

**2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:**

Mazkur mavzu yuzasidan Yu. Abduraxmanov, F. Bajko, S. Braynin, A. Briskin, G. Broydo, M. X. Vahobov, P. Galuzo, I. Dodonov, K. Jitov, H. Ziyoev, D. H. Ziyoeva, J. Ismailova, D. Kastelskaya,

P.A.Kovalev, B.Lunin, I.Mavloniy, S.M.Namozov, T.Risqulov, O.Suyunova, B.G.Sulaymonov, H.T.Tursunov, Z.U.Choriev singari ko‘plab olimlarning tadqiqotlari yaratildi. H.Ziyoevning “Turkistonda Rossiya tajavvuzi va hukmronligiga qarshi kurash”, Z.U.Chorievning “Turkiston mardikorlari: safarbarlik va uning oqibatlari”, O.Suyunovning “Turkistonda 1916 yil milliy ozodlik kurashi tarixidan”, shuningdek T.Kotyukovning “Восстание 1916 года в Туркестане: документальные свидетельства общей трагедии. Сборник документов и материалов” monografiyalari keyingi davrda yaratilganligi uchun mavzuga yangicha nuqtai nazardan yondashilganligi bilan ajralib turadi

H.Ziyoevning “Turkistonda Rossiya tajavvuzi va hukmronligiga qarshi kurash” asarida juda katta davr ya’ni XVII-XX asr boshlari davri qamrab olingan. Ushbu asarda Turkistonda bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon bu xalq qo‘zg‘oloni ekanligi, bu qo‘zg‘olon Turkiston xalqlarining chor mustamlakachi-zolimlariga qarshi umumxalq kurashi, milliy ozodlik qo‘zg‘oloni ekanligi e’tirof etiladi. Monografiyada shuningdek, 1916 yilgi milliy ozodlik harakatlari ham yaxshi yoritilgan. Z.U.Chorievning Turkiston mardikorlari: safarbarlik va uning oqibatlari” asarida esa bevosita shu davr tadqiq qilingan. Monografiyada 1916 yilgi milliy ozodlik harakatini keltirib chiqargan sabablar, uning ishtirokchilari va tashkilotchilari, chor Rossiyasi ma’murlarining mahalliy aholiga bo‘lgan munosabati manbalar orqali yoritilgan. Bu milliy ozodlik harakati o‘zining keng qamrovligi butun o‘lkani qamrab olganligi bilan Turkiston xalqlarining mustaqillikka bo‘lgan harakati tarixida alohida bir bosqichni tashkil qilganligi bilan ajralib turadi. Asar Rossiya Markaziy Davlat harbiy tarix arxivi, Ukraina Markaziy Davlat tarix arxivi, Xarkov viloyat Davlat arxivi, O‘zbekiston Markaziy Davlat arxivi hujjatlari asosida talqin qilingan. O.Suyunova 1916 yilgi qo‘zg‘olon mavzusini Sirdaryo viloyati misolida yoritib bergan. Tadqiqotchi qo‘zg‘olonning boshlanish sabablari, uning o‘ziga xos xususiyati va tarixiy ahamiyatini tadqiq qilgan. T.Kotyukovning tadqiqot ishi esa, Turkistonda 1916 yilgi qo‘zg‘olon tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, asar Rossiya va xorijdagi hujjatlar va arxiv materiallari asosida bu davr keng yoritib berilgan.

### 3. Tadqiqot natijalari:

Turkistonda bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olonlarni keltirib chiqargan sabablari, ko‘zlagan maqsadlari, harakatlantiruvchi kuchlari va oqibatlari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, ularga umumiylik xos ekanligi ko‘zga tashlanadi.

Mahalliy xalqni ayovsiz ezish oqibatida aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishi, milliy manfaatlarining inkor qilinishi, milliy g‘urur va diniy qadriyatlarga bepisandlik bilan qarash, yerlarni asossiz tortib olish, soliqlar olishdagi suiiste’molchiliklar, saylovlardagi o‘zboshimchaliklar, mardikorlikka majburlab jo‘natish kabi holatlarni qo‘zg‘olonlar kelib chiqishining sabablari deb aytish mumkin.

1916-yil xalq qo‘zg‘oloni Rossiya mustamlakachilik siyosatiga qarshi harakatlarning eng yuqori nuqtasi, eng fojialisi va o‘zining ommaviyligi jihatidan eng ko‘lami kengidir. U Birinchi jahon urushining Turkistondagi fojiali aks-sadosi tarzida ham namoyon bo‘ldi.

1914-yilda Birinchi jahon urushiga qo‘shilgan Rossiya o‘z imperialistik manfaatlarini ko‘zlab, u bilan bog‘liq muammolarini mustamlakalarining zimmasiga yuklashga harakat qildi. Chor hukumatining bu xatti-harakatlari o‘lka aholisi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yanada yomonlashtirdi. Jumladan, Turkiston paxtasining xarid narxlar kamaytirildi. Bundan, birinchi navbatda, mayda va o‘rtahol mahalliy mehnatkashlar ziyon ko‘rdilar.

Turkistonga olib kelinadigan g‘alla miqdori bir necha marta kamayib, uning narxi bir necha barobar oshib ketdi. Yangi harbiy soliq joriy qilindi.



Podsho Nikolay II ning mahalliy xalqni front orti ishlariga jalb qilish haqidagi 1916-yil 25-iyundagi «Imperiyadagi begona xalqlar erkak aholisini harakatdagi armiya rayonlarida harbiy inshootlar va shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday og'ir ishlarga jalb qilish» nomli farmoni vujudga kelgan vaziyatni yanada murakkablashtirdi va turkistonliklarning sabr kosasini to'ldirdi. Farmonga ko'ra, Turkistondan 19-43 Yoshdagi 250 ming erkak kishi mardikorlikka olinishi lozim edi.

Mardikorlikka olishning butun og'irligi mehnatkash xalq zimmasiga tushdi. Mahalliy ma'murlar katta poralar evaziga boylar va amaldor to'ralarning bolalarini mardikorlikdan qoldirar, kambag'al oilalarning bolalarini ro'yxatga tirkar edilar. Turkiston general-gubernatorining mahalliy millat vakillariga o'z o'rniga boshqa odamni yollab mardikorlikka jo'natishga ruxsat berishi boylar, amaldorlarning turli suiiste'molliklariga keng yo'l ochib berdi. Bu mehnatkashlarning shusiz ham og'ir bo'lgan ahvolini mushkullashtirib, ularning chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi qo'zg'alishiga turtki bo'ldi. 1916 - yil 4- iyulda Xo'jand, undan so'ng Samarqand, Jizzax, Kattaqo'rg'on kabi shaharlarda mardikorlikka olishga qarshi xalq qo'zg'olonlari boshlanib ketdi.

Jizzax qo'zg'oloni ularning eng shiddatlilaridan edi. Qo'zg'olonga Jizzaxning eng e'tiborli kishilaridan Nazirxo'ja Abdusalomov, o'z davrining o'qimishli kishilaridan bo'lgan Ziyoqori Abdullayev, shaharning taniqli oqsoqollaridan Muhammadrahim Abdurahmonovlar rahbarlik qildilar. Qo'zg'olonchilar nafaqat yon atrofdagi qishloqlar, balki Toshkent va Samarqanddagi mehnatkashlar bilan ham aloqa bog'ladilar, ularning ham o'z harakatlarini qo'llab-quvvatlashlarini kutdilar.

Qonli to'qnashuv 13- iyulda boshlanib, 8 kun davom etdi. Jizzax qo'zg'olonini bostirish uchun Toshkentdan bir rota, sapyorlar vzvodi, to'rt to'pli batareya; Samarqanddan bir rotadan iborat maxsus jazo otryadi, 90 kishilik maxsus ofitserlar rotasi; Orenburgdan 100 kishilik kazaklar jazo otryadi jo'natildi.

Yana Toshkentdan polkovnik Ivanov boshchiligida 12 ta rota, 6 ta to'p, 3 ta kazak otryadi, maxsus sapyorlar rotasidan iborat jazo otryadi yuborildi. Afsuski, kuchlar nisbati teng emas edi, to'plar va pulemyotlar o'qlariga qarshi turish og'ir edi.

Jazo otryadi shaharda ko'tarilgan qo'zg'olonni shafqatsiz bostirdi. Harbiylar eski Jizzaxni to'pga tutib, unga o't qo'yib, kultepaga aylantirdilar, qanchadan-qancha gunohsiz kishilarni o'ldirib, isyonchilardan qonli o'ch olindi.

Jizzax qo'zg'oloni bo'yicha mingga yaqin kishi qamoqqa olindi. Ulardan 151 kishining ishi sudga berildi. Shulardan 84 kishi osib o'ldirishga hukm qilindi. Keyinroq bu jazo «yumshatilib», boshqa jazolar bilan almashtirildi. Shu tariqa Jizzax qo'zg'oloni fojiali yakunlandi.

Jizzax qo'zg'oloni rahbarlari o'zbek xalqining ozodlik uchun kurashi tarixida alohida o'rin tutganlar. Ozodlik uchun kurash olib borgan vatandoshlarimiz bilan unga qarshi kurashayotgan chor Rossiyasi kuchlari teng emas edi. Nazirxo'ja Eshon va Abduraxmon Jevachilar mustamlakachi chor Rossiyasi qo'shinlarining kuchli zarbasiga dosh berolmay taslim bo'ldilar. Butun Turkiston general-gubernatorligini larzaga keltirgan Jizzax qo'zg'oloni shu tariqa mag'lubiyat bilan yakunlandi. Qo'zg'olon mag'lubiyatga uchragan bo'lishiga qaramay, juda katta tarixiy ahamiyat kasb etdi Turkiston xalqlari bu bilan o'z ozodliklari uchun hech narsadan, hatto o'limdan ham tap tortmay, kurashga doim tayyor ekanliklarini amalda isbotlashdi [1].

1916-yil qo'zg'oloni Turkiston aholisining Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi qaratilgan eng katta milliy ozodlik va ommaviy xalq harakati edi.

Murosasiz kurashlar bilan o'tgan 1916-yildagi qo'zg'olonlar chor hukumati ma'muriyatini tahlikaga solib qo'ydi. Mardikorlikka olish bo'yicha ilgarigi mo'ljal 50.000 kishiga kamaytirildi va 200.000 kishi qilib belgilanib, jalb qilish muddati uzaytirildi. Amalda 123.000 mardikor safarbar qilindi.

Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlari qanchalik shafqatsizlik bilan ayovsiz bostirilmasin, mahalliy aholining erk va ozodlikka bo'lgan intilishini so'ndira olmadi, aksincha, xalqqa o'zligini anglatdi, uni ozodlikka erishish g'oyasi atrofida jipslashtirdi.

Turkiston o'lkasi general-gubernatorlik vazifasini bajaruvchi M.R.Erofeev ishdan chetlatildi. 1916 yil 21 iyulda podsho Nikolay II harbiy vazir tavsiyasiga ko'ra, maxsus farmoyish bilan Shimoliy frontning bosh qo'mondoni A.N.Kuropatkinni Turkiston o'lkasi general-gubernatori va Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari bosh qo'mondoni etib tayinladi. Bu hol birinchi jahon urushi frontiga qaraganda, Turkiston o'lkasi masalasi chor Rossiyasi uchun qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

Kuropatkin avval mahalliy aholini tinchlantirib, ularni yangidan mardikorlikka safarbar etish borasida juda katta tashkiliy va targ'ibot ishlarini olib boradi. Bunda u mahalliy amaldorlar va boylarga, din peshvolariga tayanib, mardikorlikka olish to'g'risidagi o'z g'oyalarini ular orqali xalqqa etkazishga harakat qildi. Ayni vaqtda mardikorlikka olish xususida ishlab chiqilgan, turli ko'rsatma va nizomlar mahalliy amaldorlar hamda mahalliy tilda chiqadigan gazetalar orqali ham targ'ib qilindi.

Samarqand viloyati harbiy gubernatori Rossiya imperatorining siyosiy agenti janob SHulgaga murojaat bilan chiqadi. Bu murojaatnomada Buxoro amirligiga qarashli Qorategin, Darvoz va boshqa beklklaridan Samarqand va Farg'ona viloyati hududlariga buxoroliklarish izlab kelganligi va ularning xech qanday hujjatlari bo'lmaganligi uchun ma'muriyat tomonidan ushlab qolingani va buning evaziga Buxoro amiridan front ehtiyojlari uchun Buxorolik axolidan ishchilar berishi mumkinmi deb so'raladi. Bunga javoban janob Shulga buxoroliklar maxaliy temir yo'llar qurilishiga ham qiyinchilik bilan borayotgani haqida ma'lumot berib, ularning bu taklifi hozirgi vaqtda o'rinli emasligi haqida gapirib o'tadi. [2].

1916 yil 23 avgustda Turkiston general-gubernatori A.N.Kuropakinning "Mardikorlikka chaqirish tadbirlari to'g'risida"gi 220-sonli buyrug'i e'lon qilinib darhol mahalliy tillarga ag'darildi hamda uezd va bo'lislarga jo'natilib, mahalliy aholi orasida keng targ'ib etildi.

Buyruqqa binoan mardikorlikka safarbarlik 1916 yil 15 sentyabrdan boshlanishi va navbatma navbat 3-4 oy davomida amalga oshirilishi kerak edi. Turkistonlik mardikordlardan front yaqinidagi harbiy ishlarga 18 sentyabrdan har kuni ming kishidan iborat bir poezd jo'natilishi belgilandi [3].

Darvoqe, Rossiyaga jo'natiladigan mardikordlarning umumiy soni 220000 kishidan iborat bo'lishi kerak edi [4], ammo ayrim paxtakor tumanlarda aholining bandligini hisobga olinib, mardikordlarning umumiy soni 200 470 kishi qilinib belgilandi. Bu miqdor Turkiston o'lkasi viloyatlari bo'yicha quyidagicha taqsimlangan:

Sirdaryo viloyati-60000

Samarqand viloyati-32407

Farg'ona viloyati-51233

Ettisuv viloyati-43000

Kaspiyorti viloyati-13830 nafar [5].

Mardikorlar chiqqan dastlabki eshelonlar 1916 yil 18 sentyabr kuni Turkiston o'lkasidan chor Rossisi tomon yo'l oldi. O'sha kuni Toshkent va Andijon shaharlaridan bittadan [6], 20-sentyabr kuni Samarqand shahridan bitta, 21-sentyabrda Skobelevdan bitta, 22-sentyabrda Kattaqo'rg'on va Kazalinskdan bittadan eshelon jo'natildi [7].

Z.U. Chorievning ushbu davr bo'yicha olib borgan tadqiqot ishlarida berilgan ma'lumotlarga qaraganda 1917 yil yanvar-fevral oylarida hammasi bo'lib Rossiyaga atigi 19 eshelon mardikor jo'natildi. Vaholanki, mustamlaka ma'murlarining rejasi bo'yicha shu davrda 77 eshelon mardikor yuborilishi lozim edi [8].

P.A.Kovalyovning bergan ma'lumotiga ko'ra esa 18 sentyabrdan 18 dekabr gacha uch oy badalida jami 102823 mardikordan iborat 103 eshelon, 1916 yil 18 dekabrda 1917 yil 18 yanvargacha 2.654 mardikordan iborat 3 eshelon, 18 yanvardan 1 fevral gacha 14,923 mardikordan iborat 15 eshelon va 1 fevraldan 1 mart gacha 2.905 mardikordan iborat 4 eshelon jo'natildi. Xullas, hammasi bo'lib 123.305 mardikordan iborat 125 eshelon jo'natildi [9].

Shundan 113 305 nafari Rossiya ichkarisida ishlash uchun yuborildi. 10 mingi esa Turkiston o'lkasi hududlarida ishlash uchun qoldirildi.

XX asr boshlariga kelib Turkiston general-gubernatorligi tarkibi Ettisuv, Sirdaryo, Samarqand, Fargʻona va Kaspiyorti (Zakaspiy) viloyatlaridan iborat boʻldi.

Turkiston general –gubernatorligining jami 1.652.238 kvadrat kilometrlik sarhadida 5.995.726 kishi istiqomat qilardi. Xiva xonligi nufuzi 460, Buxoro amirligida 1.500.000 kishini tashkil etgan.

Turkiston koʻp millatli oʻlka boʻlib, oʻsha davrda bu erda oʻzbek, qozoq, qirgʻiz, tojik, turkman, qoraqalpoq, uygʻur, dungan, qurama, qipchoq, rus va boshqa millatlarga mansub aholi yashagan. Shoʻrolar davrida quramalar oʻzbek va qozoq tarkibida, qipchoqlar esa qozoqlar, oʻzbeklar va qirgʻizlar tarkibiga kirgan [10].

Turkistonda 2016 yilgi qoʻzgʻolon tafsilotlarini yorituvchi koʻplab tadqiqotlar chop ettirilgan. Mustaqillik yillarida chop etilgan tarix fanlari doktori Andrey Ganinning “Уроки Туркестанского восстания (Спустя 100 лет у историков нет единого взгляда на его причины и последствия)” nomli maqolasida Rossiya 1916 yilda Birinchi jahon urushi davom etayotgan paytda Turkistondagi holatni izohlaydi. Ayni shu davrda Turkiston aholisi juda koʻplab imtiyozga ega edi. Harbiy chaqiruvdan ozod edi, ular janglarda ishtirok etmasdilar, okoplarda chirimayotuvdilar balkim oʻz xoʻjalik hayotlari bilan band edilar. Rossiya Oʻrta Osiyoni qoʻshib olgach (qoʻshib emas bosib olgach. R.X.) bu hududda temir yoʻllar oʻtqazdi, kanallar qazdirdi, tibbiy xizmatlarni yoʻlga qoʻydi, buning natijasida oʻlim keskin kamaydi, pochta, telegraf ishga tushirildi, sanoat taraqqiy topdi. Bu paytda Rossiya imperiyasining resurslari cheksiz emas edi, hukumat mamlakat himoyasi uchun oʻz mustamlakalaridan foydalanishga qaror qildi deb taʼkidlaydi.

Bizga maʼlumki ushbu tadqiqotda 25 iyun 1916 yilda eʼlon qilingan imperator Nikolay II farmoni haqida gap borayapti. Endi bu erda Oʻzbek xalqi emas Turkistonning yana bir xalqi qirgʻizlar taqdiri haqida soʻz boradi. Imperator Nikolay II farmoniga qirgʻizlar qarshi chiqqani va buning natijasida Ettisuvda ruslarga nisbatan tahdidlar boʻlayotgani koʻrsatilgan. Qoʻzgʻolonchilar 10-11 avgustda Pishpak, Prejevalskiy, Verniy va Toshkent bilan telegraf aloqalarini buzishdi. Maqola muallifi qirgʻizlardan ozor chekkan Ivanetskiy, Kolsov qishlogʻi aholisi toʻgʻrisida maʼlumot berib bu erlarni tirik qolgan aholisi Prjevalskiyga qochishga majbur boʻldi deb yozadi. Qoʻzgʻolon shu darajaga borib etdiki oxir oqibat unga qarshi harbiy harakatlar boshlandi. Qoʻzgʻolonchilar tomonidan 10 avgust Pishpak uezdining nachalnigi podpolkovnik Rymshovich oʻz harbiy qoʻshini bilan Somsonov stansiyasida qamalga olindi. 12 avgustdagina Verniydan yuborilgan otliq otryad yordamga kelgach qamalni yorib chiqishga muvaffaq boʻlishdi. Hukumat qoʻshinlari Pishpak va Toʻqmoq telegraf aloqalarini tiklashdi. 42 ta otliqdan iborat qoʻshin bilan qoʻzgʻolonchilar oʻrtasida qattiq jang boʻlib oʻtdi. Boʻlib oʻtgan janglarda qoʻzgʻolonchilardan 200ta kishi, hukumat qoʻshinlaridan 1ta kazak halok boʻldi.

Boshida qirgʻizlar qarshilik koʻrsatgan ruslarnigina yoʻq qilishayotgan edi, keyinchalik “kofirlarni oʻldirgan jannatga tushadi” deb qoʻliga tushgan ruslarni oʻldira boshlashdi deb arxiv manbalaridan maʼlumotlar keltiriladi. Tadqiqotchi mavzuni yoritishda bir tomonlama yondashgan. U faqat ruslarni qirgʻizlar tomonidan yoʻq qilinishini koʻrsatib berishga harakat qilgan. Vaholanki, Rossiya imperiyasining Turkistonga bosib kelib, oʻz tartibini oʻrnatgan, oʻz manfaatlarini oʻylab, front ortidagi ishlarga tinch aholini safarbar etayotgani, xalkni tinch hayotini buzayotgani haqida fikr bildirmaydi.

Ayni shu davr voqealariga nazar solsangiz qirgʻizlar bilan ruslar oʻrtasida dushmanlik oʻsib borayotganligi, qirgʻizlarning harakatiga ruslar ham qarab turmaganligi va qarzdor boʻlib qolmaganligini koʻrish mumkin. Prjevalskiyda qirgʻizlarga nisbatan qattiq qirgʻin uyushtirildi. 12 avgustda Prjevalskiyda qoʻlga olingan qoʻzgʻolonchilar turmadan qochmoqchi boʻldi deb 80tasi otib tashlandi. 12 avgust Belovodsk hududida 338 kishi qoʻlga olindi, ulardan 138tasi Pishpak turmasiga joʻnatilgan va yoʻlda qochishga urindi deb otib tashlandi.

Hukumat qoʻshinlaridan son jihatdan koʻp boʻlgan qirgʻizlar ularning hujumlarini qaytara olmay, bir qismi togʻlarga, bir qismi Xitoyga chiqib ketdi. Bu holat haqida Turkiston general gubernatorligining Qashgʻardagi elchixonasiga murojaat boʻlganligidan ham bilish mumkin. [11] Ettisuvdagi harbiy harakatlarda ruslardan 2325 kishi halok boʻlgan, 1384 tasi bedarak yoʻqolgan. Baʼzi bir maʼlumotlarga koʻra mahalliy aholidan 4000 kishi jangda, 12000 kishi esa

Xitoyga qochayotganda chegarachilarning qarshiligidan halok bo'lgan.164000 kishi Xitoyga qochgan,ulardan bir qismi 1917 yili may oyida o'z ona Vataniga qaytgan,70000 qochoq esa o'sha erda qolib ketgan.

Qo'zg'olondan keyin general-gubernator Kuropatkinning buyrug'i bilan 80000 qirg'iz Pishpak va Prjevalskiydan ko'chirildi. Shuncha norozilik harakatlariga qaramay podsho farmoni ijrosi amalga oshirildi. 1917 yil fevral oyida front ortidagi ishlarga 123000 odam jo'natildi.Qo'zg'olon tashkilotchilaridan 32 tasiga o'lim hukmi e'lon qilindi. Shu yilning mart oyida hukumat mardikorlikka olishni to'xtatdi,may oyida esa ularni uyiga qaytarishga qaror qilindi. [12].

Shunday qilib, ko'pgina ayanchli voqealarga sabab bo'lgan mardikorlikka safarbarlik ishlari 1917 yil martida butkul to'xtatildi. Albatta bu harakatning to'xtatilishining o'ziga xos sabablari bor edi. Bular:

Birinchidan, juda katta kuch va mablag' sarflanganligi hamda talay tashkiliy ishlar amalga oshirilganligiga qaramay, Chor ma'murlari davlat mudofaasi yo'lida juda katta ahamiyatga molik deb baholagan mardikorlikka olish tadbiri mustamlaka ma'murlari ko'zlagan natijani bermadi.

Ikkinchidan, mardikorlikka olish va ular hisobiga Rossiya sanoat korxonalarini arzon-garov ishchi kuchi bilan ta'minlash vositasida front ortini mustahkamlash to'g'risidagi g'oya chippakka chiqdi,Bu davrda chor Rossiyasining frontdagi mavqei,aksincha, pasayib ketdi

Uchinchidan, mardikorlarning temir yo'l orqali tashilishi natijasida temir yo'l transportining ahvoli yanada og'irlashdi.

Va nihoyat, to'rtinchidan, mardikorlikka safarbarlikka qarshi Turkiston o'lkasida keng xalq ommasini ko'targan qo'zg'olonlarni chor ma'murlari ayovsiz bostirgan bo'lsada, ammo Rossiyaga jo'natilgan mardikorlar kurashni davom ettirib, Rossiya hududida uni yangi pog'onaga ko'tardilar,mardikorlar u erda o'zlarining iqtisodiy va siyosiy huquqlari himoyasi uchun kurashga qo'zg'aldilar va bilan chor hukumati ma'murlarini og'ir ahvolga solib qo'ydilar [13].

#### 4. Xulosalar:

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'nggina Vatanimiz tarixining o'rganilmagan sahifalarini yoritishga keng imkoniyatlar eshiklari ochildi.Jumladan 1916 yilgi qo'zg'olon,mardikorlikka safarbarlik va unga qarshi mahalliy xalq qo'zg'olonlari mavzusi ham mustaqillikdan keyingina tizimli o'rganila boshlandi.

1914 yili birinchi jahon urushi nafaqat chor Rossiyasiga ,balki uning mustamlakasi Turkistonga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi.Turkiston xalqlarining shunday ham iqtisodiy ahvoli og'irlashib turganda imperator Nikolay II ning 1916 yil 25 iyundagi mardikorlikka olish to'g'risidagi Farmoni xalqning sabr kosasini to'ldirdi.Bu farmon mahalliy aholining chor ma'murlari va ularning mahalliy maslakdoshlariga qarshi milliy ozodlik harakatini boshlashga turtki bo'ldi.1916 yilgi qo'zg'olon umumxalq harakatiga aylangan edi.Unda kambag'allar hunarmandlar dehqonlar chorikorlar duradgorlar do'kondorlardan tortib yirik boylar ulamolar savdogarlar ham birdek ishtirok etdilar.Bu harakat chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmiga uning siyosatiga qarshi qaratilgan eng yirik harakatlardan biridir. Bu qo'zg'olon asta-sekin oddiy norozilik harakatidan o'sib milliy ozodlik harakatining mustamlaka zulmidan ozod bo'lish va mustaqil milliy dalatchiligimizni qayta tiklashdek oliy maqsadni ko'tarib chiqqan edi [14].

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Чориев З. Туркистон мardикорлари: сафарбарлик ва унинг оқибатлари (1916-1917 йиллар). –Тошкент: Шарк, 1999. - 80 б. (Choriev Z. Turkestan laborers: mobilization and its consequences (1916-1917). – Tashkent: East, 1999. - 80 p.)
2. Восстание 1916 г.в Киргизистане (Документы и материалы собранные Л.В.Лесной). – Москва: Соцэжгиз,1937. 27-стр. (. The 1916 Uprising in Kyrgyzstan (Documents and materials collected by L.V. Lesnoy). Moscow, Sotsekgiz, 1937. 27-p.)
3. РМДХТА,369-жамфарма,52-иш, 2-варақ. (Russian State Archive of Military History , Fund 369, Case 52, 2p.)

4. РМДХТА,369-жамғарма, 52-иш,2-варақ. (Russian State Archive of Military History, Fund 369, Case 52, 2p.)
5. РМДХТА,369-жамғарма, 9-рўйхат,52-иш,3-варақ. (Russian State Archive of Military History , Fund 369, list 9, case 52, 3p)
6. РМДХТА, 400-жамғарма, 1-рўйхат, 4544-иш, 4-бўлим, 145-варақ (Russian State Archive of Military History , Fund 400, List 1, Case 4544, Chapter 4, 145p).
7. РМДХТА, 400-жамғарма, 1-рўйхат, 4544-иш, 4-бўлим, 145-варақ (Russian State Archive of Military History, Fund 400, List 1, Case 4544, Chapter 4, 145p).
8. Чориев З.У. XX аср бошларида Туркистон ўлкасида мустамлакачилик сиёсати ва миллий зулмининг кучайиши ҳамда унинг оқибатлари (Мардикорликка сафарбарлик мисолида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Тошкент,1999.140- бет. (Choriev Z.U. He At the beginning of the XX century, the colonialism policy and the emergence of national oppression in the Turkistan region and its consequences (on the example of mobilization to bravery).Written dissertation for the degree of Doctor of historical sciences. -Tashkent, 1999, page 140).
9. Ковалёв П.А.Революционная ситуация 1915-1917 гг. и ее проявления в Туркистане. - Тошкент: Фан, 1971. -С.82. (Kovalev P. A. the Revolutionary situation of 1915-1917 and its manifestations in Turkestan.- Tashkent: Fan, 1971. -P. 82.)
10. Чориев З. Туркистон мардикорлари: сафарбарлик ва унинг оқибатлари (1916-1917 йиллар). – Тошкент: Шарқ, 1999.19-б. (Choriev Z. Turkistan martyrs: mobilization and its consequences (1916-1917 years). – Tashkent: East, 1999.19-p.)
11. Восстание 1916 г.в Киргизистане (Документы и материалы собранные Л.В.Лесной). – Москва: Соцэкгиз, 1937.103-стр. (The 1916 uprising in Kyrgyzstan (Documents and materials collected by L. V. Lesnoy). Moscow, Sotsekgiz, 1937.103-p.)
12. Rg.ru/2016/07/05/rodina-vosstanie-v-turkeстане,thml. Андрей Ганин.д.и.н.“Уроки Туркестанского восстания (Спустя 100 лет у историков нет единого взгляда на его причины и последствия)”. (Rg.ru/2016/07/05/rodina-vosstanie-v-turkeстане,thml.Andrey Ganin. d. I. n. " Lessons of the Turkestan uprising (after 100 years, historians do not have a single view on its causes and consequences)".)
13. Чориев З, Туркистон мардикорлари: сафарбарлик ва унинг оқибатлари (1916-1917 йиллар). -Тошкент: Шарқ, 1999.104-б.( Choriev Z, Turkistan martyrs:mobilization and its consequences (1916-1917 years). – Tashkent: East, 1999.104-p.)
14. Чориев З. Кўрсатилган асар.150- б. (Choriev Z . Showing work. -p. 150.)

**ЎТМИШГА НАЗАР**

**ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ**

**LOOK TO THE PAST**

**№SI-3 (2020)**

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000